

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.I.23.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

OMANOVA NARGIZA RUSTAM QIZI

AKSIYADORLIK JAMIYATLARI BOSHQARUV TIZIMIDA
KORPORATIV MADANIYATNI TAKOMILLASHTIRISH

08.00.13 – Menejment

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent – 2026

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по экономическим наукам**

**Contents of Dissertation Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD)
on economical sciences**

Omanova Nargiza Rustam qizi

Aksiyadorlik jamiyatlari boshqaruv tizimida korporativ madaniyatni
takomillashtirish.....3

Оманова Наргиза Рустам кизи

Совершенствование корпоративной культуры в системе управления
акционерными обществами27

Omanova Nargiza Rustam kizi

Improving corporate culture in the management system of joint-stock
companies.....53

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works.....59

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.I.23.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

OMANOVA NARGIZA RUSTAM QIZI

AKSIYADORLIK JAMIYATLARI BOSHQARUV TIZIMIDA
KORPORATIV MADANIYATNI TAKOMILLASHTIRISH

08.00.13 – Menejment

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent – 2026

Falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan B2023.2.PhD/Iqt3105 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya ishi Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) ilmiy kengash veb-sahifasi (www.tsue.uz) va "ZiyoNet" axborot-ta'lim portali (www.ziynet.uz) manziliga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Umarxodjayeva Muyassar Ganiyevna,**
iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Rasmiy opponentlar: **Saidov Mashal Samadovich,**
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Baxtiyorov Bobur Bahodir o'g'li,
iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot: **Toshkent kimyo-texnologiya instituti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi DSc.03/2025.27.12.I.23.04 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil "_____" soat _____ dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.: (99871) 239-28-72. Faks: (99871) 239-43-51. e-mail: info@tsue.uz.

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____-raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.: (99871) 239-28-72. Faks: (99871) 239-43-51. e-mail: info@tsue.uz

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "_____" kuni tarqatildi.
(2026-yil "_____" dagi _____-raqamli reyestr bayonnomasi).

G.Q. Abduraxmonova,
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, i.f.d., professor

O.D. Djurabayev,
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
kotibi, DSc, professor

Sh.A. Allayarov,
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
huzuridagi ilmiy seminar raisi, i.f.d.,
professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyo mamlakatlarida korporativ madaniyatni takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. To'g'ri tashkil qilingan korporativ madaniyat tashkilotning moliyaviy natijalari, boshqaruv sifati va uzoq muddatli barqarorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ilmiy tadqiqotlar bu ahamiyatni aniq raqamlar bilan tasdiqlaydi: Kotter va Heskett tomonidan olib borilgan mashhur uzoq muddatli tadqiqot natijalariga ko'ra, kuchli va moslashuvchan korporativ madaniyatga ega kompaniyalar 11 yil davomida daromadlarini 600 foizdan ortiq oshirgan bo'lsa, madaniyati zaif bo'lgan kompaniyalarda bu ko'rsatkich 200 foizdan ham kam bo'lgan. Sof foyda o'sishi bo'yicha esa kuchli madaniyatga ega kompaniyalarda o'sish 750 foizdan oshgan, zaif madaniyatga ega kompaniyalarda esa deyarli o'sish kuzatilmagan. Deloitte'ning Global Human Capital Trends hisobotiga ko'ra, rahbarlarning 90 foizdan ortig'i korporativ madaniyatni tashkilot muvaffaqiyati uchun muhim deb hisoblaydi, biroq atigi 30 foizga yaqin kompaniyalar uni samarali boshqarayotganini tan oladi. Aksiyadorlik jamiyatlarida minglab aksiyadorlar professional menejerlarga tayanadigan sharoitda kuchli korporativ madaniyat norasmiy boshqaruv mexanizmi sifatida faoliyat yuritib, agentlik xarajatlarini kamaytiradi, noetik xatti-harakatlarni cheklaydi va qaror qabul qilish jarayonini faqatgina rasmiy qoidalar bilan cheklanib qolmasdan yo'naltirib turadi.

Aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ madaniyatning o'rni so'nggi o'n yilliklarda yanada ortdi, chunki globalizatsiya, raqamli transformatsiya va korporativ boshqaruvdagi inqirozlar ko'plab aksiyadorlik jamiyatlarida aynan madaniy zaifliklar mavjudligini ko'rsatdi. Xalqaro konsalting va audit tashkilotlari tahlillariga ko'ra, yirik korporativ mojarolar va boshqaruvdagi nosozliklarning 40 foizdan ortig'i madaniy va axloqiy muammolar bilan bog'liq bo'lib, moliyaviy yoki texnik xatolardan ustun turadi. Aksincha, korporativ madaniyati yuqori darajada shakllangan kompaniyalarda xodimlar mehnat unumdorligi 25–30 foizga yuqori bo'lishi, kadrlar almashinuvi esa sezilarli darajada past bo'lishi aniqlangan, bu esa yirik aksiyadorlik jamiyatlarida muvofiqlashtirish va barqarorlik uchun juda muhimdir. Kuchli korporativ madaniyat barqaror boshqaruv, samarali ichki kommunikatsiya, aksiyadorlar va manfaatdor tomonlar bilan ochiq muloqotni ta'minlaydi. Aksiyadorlik jamiyatlari rahbariyatining ushbu masalaga e'tibor qaratishi milliy va xalqaro tajribalarni integratsiya qilish orqali kompaniyalar samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

O'zbekiston sharoitida esa ushbu mavzu ayni dolzarb masala sifatida e'tirof etilmoqda. Yurtimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar doirasida aksiyadorlik jamiyatlari soni ortib borayotgan bir paytda ularning boshqaruv tizimida korporativ madaniyatni shakllantirish zarurati ortmoqda. 2023-yilda Kapital bozorini rivojlantirish agentligi ma'lumotlariga ko'ra, mavjud aksiyadorlik jamiyatlarining atigi 30–35 foizida korporativ madaniyat siyosati mavjud bo'lib, bu ko'rsatkich hali past darajada ekanligini ko'rsatadi. Bundan tashqari, aksariyat jamiyatlarda xodimlarning ishtiroki cheklangan, axloqiy qadriyatlar tizimi esa umumiy ichki hujjatlar darajasida qolmoqda.

Mamlakatimizda har bir sohada chuqur iqtisodiy islohotlar olib borilayotgan hozirgi davrda “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60 sonli farmoni bilan tasdiqlangan “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” dasturida belgilangan ustuvor vazifalarni amalga oshirish hamda aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatida korporativ boshqaruv samaradorligini yanada oshirish, qolaversa, ayni paytda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 24-apreldagi “Aksiyadorlik jamiyatlarida zamonaviy korporativ boshqaruv uslublarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-4720-sonli farmoni bilan tasdiqlangan “Korporativ boshqaruv tizimini tubdan takomillashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturi”da belgilangan vazifalar va tadbirlarni bajarish yuzasidan korxonalarga to‘g‘ridan to‘g‘ri joriy investitsiyalarni keng jalb qilish, aksiyadorlik jamiyatlari faoliyati samaradorligini tubdan oshirish, zamonaviy korporativ boshqaruv uslublarini joriy qilish, korxonalarni strategik boshqarishda aksiyadorlar rolini kuchaytirish uchun qulay sharoitlar yaratish maqsadida korporativ madaniyatning roli ortib bormoqda. Bundan tashqari, 2022-yil 17-martda ma‘qullangan O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining yangi tahriri, 2019-yil 9-dekabrda “Byurokratik to‘siqlarni yanada qisqartirish hamda davlat organlari va tashkilotlari faoliyatiga zamonaviy boshqaruv tamoyillarini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4546-son qarorlari hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirish jarayonida milliy korxona va tashkilotlarda personal boshqaruv doirasida kadrlar huquqlarini ta‘minlash masalalarini yoritishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Korporativ madaniyatni mamlakat va korxona samaradorligiga erishish mexanizmi sifatida talqin etishning ilmiy-nazariy asoslari qator xorijiy menejment fani namoyandalari tomonidan o‘rganilgan. Jumladan, mazkur masala Henry Fayol, Peter Ferdinand Drucker, Lillian Gilbreth, Frederick Winslow Taylor, Laszko Block, Erin Meyer, Patty McCord, Robert Richmen, E.Schein, Ron Friedman, V.N. Belkin, Marina Vishnyakova, Daniel Danison, E.A. Kapitonov, Tatyana Kojevnikova¹ ishlarida batafsil yoritib berilgan.

¹ Fayol, H. (2013). General and Industrial Management. (C. Storrs, Trans.). Martino Fine Books. Tricker, B. (2019). Corporate Governance: Principles, Policies, and Practices (4th ed.). Oxford University Press. The New Corporate Cultures: Revitalizing the Workplace After Downsizing, Mergers, and Reengineering (2000). Drucker, P. F. (2001). The Essential Drucker: The Best of Sixty Years of Peter Drucker’s Essential. Writings on Management. New York: HarperBusiness. De Boeck, G. (2024). “Lillian Gilbreth”. In Elgar Encyclopedia of Organizational Psychology (pp. 369–372). Edward Elgar Publishing. Nethavhani, M. (2020). The contributions of Frederick Taylor to Management Science, including the criticism of his views as they affect the worker. Journal of Management Science, 4(3), 45–58. Bock, L. (2015). Work Rules!: Insights from Inside Google That Will Transform How You Live and Lead. New York: Twelve. Meyer, E. (2014). The Culture Map: Breaking Through the Invisible Boundaries of Global Business. New York: PublicAffairs. McCord, P. (2018). Powerful: Building a Culture of Freedom and Responsibility. Silicon Guild. Richman, R. (2012). The Culture Blueprint: A Guide to Building the High-Performance Workplace. Silicon Guild. Schein, E.H., & Schein, P.A. (2019). The Corporate Culture Survival Guide (3rd ed.). Wiley. Friedman, R. (2014). The Best Place to Work: The Art and Science of Creating an Extraordinary Workplace. New York: Perigee. Belkin,

Korporativ madaniyatning roli va ahamiyatini asoslash, korporativ madaniyatni biznesga bog‘lash tamoyillari hamda uni motivatsiya omillari orqali tahlil qilish masalalari B.Triker, M.E. Porter, T.Peters, R.Waterman, E.Sheyn, G.Xofstede, R.Quin, P.Druker, D.Kennedi, W. Ouchi, D. McGregor va McKensey² kabi olimlar tomonidan ilmiy jihatdan tadqiq etilgan.

Mahalliy iqtisodchi olimlarimiz ham mamlakatimiz korporativ tuzilmalarida korporativ madaniyatni takomillashtirish masalalariga doir qator tadqiqotlar olib borgan. Ayniqsa, bu borada Q.X. Abdurahmonov, G.Q. Abduraxmanova, N.Q. Yo‘ldoshev, B.B. Berkinov, B.Y. Xodiyev, D.S. Qosimova, D.X. Suyunov, M.B. Xamidulin, M.G. Umarxodjayeva, A.R. Ismailov, N.M. Rasulov, Z.A. Ashurov, M.M. Tashxodjayev, Sh.S. Muxamadjanov, B.N. Urinov, N.I. Akramova³ kabi olimlarning izlanishlari alohida diqqatga sazovor.

Manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, aksiyadorlik jamiyatlari boshqaruv tizimida korporativ madaniyat mexanizmlarini ishlab chiqish, respublikada korporativ madaniyatni diagnostika qilishning ilg‘or usullari yaxlit tizim sifatida o‘rganilmagan. Bu, o‘z navbatida, ushbu mavzuda ilmiy-tadqiqot olib borish, shuningdek, uning maqsadi va vazifalarini belgilashni taqozo qiladi.

V.N., Belkina, N.A., Antonova, O.A., & Luzin, N.A. (2014). Влияние корпоративной культуры на инновационную активность персонала предприятий. Экономика региона, 10(4), 129–138. Vishnyakova, M. (2015). Мифы и правда о KPI и корпоративной культуре. Как управлять собой и другими. [Myths and Truths about KPIs and Corporate Culture: How to Manage Yourself and Others]. Denison, D.R. (2012). Leading Culture Change in Global Organizations: Aligning Culture and Strategy. Jossey-Bass. Kapitonov, E.A., & Kapitonov, A.E. (2003). Корпоративная культура и PR. [Corporate Culture and PR]. Kojevnikova, T. (2020). Корпоративная культура. [Corporate Culture]. Kojevnikova, T. (2021). HR как он есть. [HR as It Is].

² Tricker, B. (2019). Corporate Governance: Principles, Policies, and Practices (4th ed.). Oxford University Press. Competitive Strategy: Techniques for Analyzing Industries and Competitors (1980). Peters, T. (2010). “Tom Peters on Leading the 21st-Century Organization”. The McKinsey Quarterly. Hofstede, G., Hofstede, G.J., & Minkov, M. (2010). Cultures and Organizations: Software of the Mind (3rd ed.). McGraw-Hill. Quinn, R.E., & Cameron, K.S. (2011). Diagnosing and Changing Organizational Culture: Based on the Competing Values Framework (3rd ed.). Jossey-Bass. Deal, T.E., & Kennedy, A.A. (2000). The New Corporate Cultures: Revitalizing the Workplace After Downsizing, Mergers, and Reengineering. Basic Books. Umar, S., & Geetika. (2019). The McKinsey 7S Model Helps in Strategy Implementation: A Theoretical Foundation. Tecnia Journal of Management Studies, 14(1). Theory Z: How American Management Can Meet the Japanese Challenge (1981). “Organizational Psychology on the Rise – McGregor’s X and Y Theory: A Systematic Literature Review” (2022).

³ Абдурахмонов Қ.Х. Управление человеческими ресурсами организации. Учебник. Фан-2020; Абдурахмонов Қ.Х. Меҳнат иқтисодиёти: назария ва амалиёт. Дарслик. –Т.:Фан, 2019, 595 б; Абдурахмонова Г.Қ. Инсон ресурсларини бошқариш. Дарслик. Тошкент-2020; N.Q. Yo‘ldoshev va boshqalar, Menejment. O‘quv qo‘llanma (bakalavriat uchun) “IQTISOD-MOLIYA”, T: 2009 y. 214 b; Беркинов Б.Б. Корпоративные структуры (Основы создания и управления). – Т.: Изд-во Нац. 6- ки Узбекистана им. А.Наваи, 2005. – 132 с.; Ходиев В.Ю., Беркинов В.Б. Korporativ boshqaruv: o‘quv qo‘llanma. – Т.: «ADIB», 2010. – 190 б; Qosimova D.S. Forming a management system of organizational culture of the enterprise — NVEO-NATURAL VOLATILES & ESSENTIAL OILS, 2021. <https://www.nveo.org/index.php/journal/article/view/1020>; Suyunov D., Xoshimov E. Korporativ boshqaruv modellari: konseptual jihatlar, zamonaviy tendensiyalar va konvergensiya imkoniyatlari. // “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. 4-son, iyul-avgust, 2017 yil.; Suyunov D.X. Korporativ boshqaruv mexanizmi: muammo va yechimlar. Monografiya. – Т.: Akademiya, 2006. – 116 б.; Xamidulin M.B., Umarxodjayeva M.G., Ismailov A.R. Korporativ boshqaruv-2. Toshkent-Iqtisodiyot. 2019.; Rasulov N.M. Korporativ tuzilmalarda innovatsion jarayonlarni strategik boshqarish uslubiyotini takomillashtirish. 08.00.13 – “Menejment (iqtisodiyot fanlari)”. Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. – Т.: TDIU, 2020 y.; Ashurov Z. Aksiyadorlik korxonalarida korporativ boshqaruvning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish. 08.00.13 – “Menejment” ixtisosligi bo‘yicha iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Т., 2019. – 72 б.; M.M.Tashxodjayev va boshqalar. Korporativ madaniyat. Darslik. – Т.: «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», 2021. – 204 б.; Мухамаджанов Ш.С. Корпоративное управление и его развитие в Узбекистане // Экономика Центральной Азии. – 2021. – Том 5. – № 2. – С. 207-224. – doi: 10.18334/asia.5.2.112020. B.N. Urinov, U.F. Kenjayeva. Korporativ boshqaruv.: Darslik. –Т.: ООО “Diadema nur servis”, 2024.405b. N.I. Akramova-08.00.13-“Menejment” Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori dissertatsiyasi avtoreferati.

Dissertatsiyaning tadqiqot bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi aksiyadorlik jamiyatlari boshqaruv tizimida korporativ madaniyatni takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

aksiyadorlik jamiyatlari boshqaruv tizimida korporativ madaniyatning ilmiy-nazariy ahamiyatini tadqiq qilish, uning korxona imiji, xodimlar samaradorligi va korxonaning umumiy raqobatbardoshlik darajasiga ta'sirini o'rganish;

korporativ madaniyatning klassik va zamonaviy tendensiyalari ahamiyatini xorijiy hamda mahalliy tadqiqotlar natijasida tahlil qilish;

so'rovnomalar, intervyular va anonim fikr-mulohazalar orqali xodimlarning korporativ madaniy holati bo'yicha qarashlarini aniqlash;

korxonada korporativ madaniyat bahosiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarning ekonometrik tahlilini amalga oshirish;

korporativ madaniyatning korxonada talantlar boshqaruvi va qo'nimsizlikka bo'lgan ta'sirini tahlil qilish;

korxonaning rasmiy missiyasi, strategik maqsadlarini tahlil qilish, korporativ madaniyatning ushbu qadriyatlar bilan qanchalik uyg'un ekanligini aniqlash hamda korxona missiyasi bilan xodimlar xatti-harakatlarini takomillashtirish uchun taklif va tavsiyalar ishlab chiqish;

aksiyadorlik jamiyatlarida xodimlarning ish va shaxsiy hayotidagi muvozanatning ish samaradorligiga ta'sirini aniqlash va uni muvofiqlashtirish yo'llarini takomillashtirish;

jahonda kuchli korporativ madaniyatga ega, aynan shu omil orqali yuqori iqtisodiy va moliyaviy farovonlikka erishgan, o'z brendi va imijiga ega korxonalarni o'rganish.

Tadqiqotning obyekti sifatida "O'z kimyosanoat" aksiyadorlik jamiyati tanlangan.

Tadqiqotning predmetini aksiyadorlik korxonalari boshqaruv tizimida korporativ madaniyatni takomillashtirish hamda rivojlantirish jarayonida yuzaga keladigan tashkiliy-iqtisodiy munosabatlar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishida zamonaviy boshqaruv yondashuvlari, tizimli va kompleks yondashuv, funksional yondashuv, analiz, sintez, monografik tahlil, iqtisodiy-statistik tahlil, induksiya va deduksiya, klassifikatsiyalash, solishtirma tahlil, dinamik tahlil, reytinglash, ekonometrik tahlil, baholash kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ madaniyat rivojlanishini baholash uchun LSI, CCI, CVA va TII indikatorlari asosida 0–5 oraliqdagi integral korporativ madaniyat indeksi (ICMI) ishlab chiqilib, unga ko'ra, holat "past" (0–2), "o'rta" (2,1–3,0), "yetarli rivojlangan" (3,1–4,0) va "yuqori rivojlangan" (4,1–5,0) toifalariga ajratish usuli taklif etildi;

xodimlarni boshqarish samaradorligining xalqaro miqyosdagi optimal hamda milliy miqyosdagi darajalari (tegishli ravishda: sodiqlik ko'rsatkichi (eNPS = 10 %; 12,9 %), tashkilotda vakansiyalarni to'ldirish tezligi (VTT = 26 kun; 23,9 kun), xodimlarning o'z ish faoliyatiga jalb qilinganlik darajasi (JQD = 50 %; 63,3 %) asosida "O'zkiymyosanoat" AJ xodimlarini boshqarish faoliyati takomillashtirilgan;

korporativ madaniyatni transformatsiya qilish doirasida "Industrial Culture 4.0" konsepsiyasiga asoslangan boshqaruv tizimining ilg'or tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi OKR, gibril ish tizimi hamda markazdagi inson paradigmasi taklifi orqali asoslangan;

qadriyatlar ta'sirida qulay mehnat sharoitlari (+12,189 ball) va sodiqlik (+13,461 ball) darajalarining ustuvor dinamikasiga tayangan holda, korporativ muhit barqarorligining 2030 yilgacha bo'lgan ehtimoliy rivojlanish trayektoriyalarini aks ettiruvchi prognoz ishlab chiqildi.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

xulq-atvor iqtisodiyoti tamoyillarini korporativ boshqaruvga integratsiya qilish orqali xodimlarning ichki tartib-qoidalarga rioya qilish darajasi oshirildi, mehnat munosabatlari takomillashtirildi hamda ishga jalb qilinganlik ko'rsatkichi 12,9 %ga oshdi;

inson kapitalini rivojlantirishda yetakchilik, jamoaviy birdamlik va ijtimoiy javobgarlikni kuchaytirish orqali xodimlarning kasbga bo'lgan sodiqlik darajasi mustahkamlandi hamda ularning ish samaradorligi va korxona missiyasiga bo'lgan ishonchi oshirildi;

xodimlarni boshqarish samaradorligi xalqaro va milliy standartlarga muvofiqlashtirilib, vakansiyalarni to'ldirish tezligi (VTT) 23,9 kungacha qisqartirildi, jalb qilinganlik darajasi (JQD) 63,3 %ga yetkazildi hamda sodiqlik darajasi xalqaro me'yorlarga yaqinlashtirildi;

OKR (Objectives and Key Results) metodining joriy etilishi natijasida korxonada xodimlarning korxona missiyasi hamda imijiga sodiqligi oshdi, ularning mehnat faoliyati aniq maqsad va natijalar asosida baholanishi yo'lga qo'yildi;

korxonada xodimlarning korporativ madaniyat bahosiga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlash bo'yicha so'rovnoma ishlab chiqilib, eng ustuvorlarini belgilashni aniqlash yuzasidan ekonometrik model tuzildi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqotda qo'llangan yondashuv, usullar va nazariy ma'lumotlarning rasmiy manbalardan, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi hamda "O'zkiymyosanoat" AJ statistik ma'lumotlaridan olingani, ilmiy-amaliy konferensiya va seminarlarda to'liq aprotatsiyadan o'tganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi, ularning davlat organlari tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ishlab chiqilgan dastur, model va tavsiyalardan O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan aksiyadorlik jamiyatlari boshqaruv tizimida korporativ madaniyatni samarali boshqarishning nazariy va uslubiy jihatlari o'rganilgan holda, uni rivojlantirish bo'yicha olib borilgan tadqiqot ishlarida, korxonalarda korporativ madaniyatning iqtisodiy tashkiliy tizimlari mazmunini takomillashtirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati esa boshqaruv samaradorligini oshirish, xususan, “O‘zkimyosanoat” AJda zamonaviy menejment yondashuvlarini tadqiq qilish, taklif etilgan korporativ madaniyatni boshqarish modeli va dasturlarini korxonalar faoliyatida hamda soha boshqaruv apparati funksiyalarini takomillashtirishda qo‘llash, shu bilan birga, tadqiqot natijalaridan “Menejment” va “Korporativ madaniyat” fanlari bo‘yicha keys-stadilar, ma’ruzalar matni, o‘quv qo‘llanmalar tayyorlashda ilmiy manba sifatida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Aksiyadorlik korxonalari boshqaruv tizimida korporativ madaniyatni takomillashtirish bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ madaniyat rivojlanishini baholash uchun LSI, CCI, CVA va TII indikatorlari asosida 0–5 oraliqdagi integral korporativ madaniyat indeksi (ICMI) ishlab chiqilib, unga ko‘ra, holat “past” (0–2), “o‘rta” (2,1–3,0), “yetarli rivojlangan” (3,1–4,0) va “yuqori rivojlangan” (4,1–5,0) toifalariga ajratish usuli taklif etildi (“O‘zkimyosanoat” AJning 2025-yil 10-dekabrda 30-1258-son ma’lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida xulq-atvor iqtisodiyoti tamoyillari asosida ichki tartib-qoidalar innovatsion tashkil qilinib, KPI ko‘rsatkichlariga mos rag‘batlantirish tizimi joriy etilishi orqali qo‘nimsizlik darajasi (turnover rate) 14 %gacha pasaytirildi;

xodimlarni boshqarish samaradorligining xalqaro miqyosdagi optimal hamda milliy miqyosdagi darajalari (tegishli ravishda: sodiqlik ko‘rsatkichi (eNPS = 10 %; 12,9 %), tashkilotda vakansiyalarni to‘ldirish tezligi (VTT = 26 kun; 23,9 kun), xodimlarning o‘z ish faoliyatiga jalb qilinganlik darajasi (JQD = 50 %; 63,3 %) asosida “O‘zkimyosanoat” AJ xodimlarini boshqarish faoliyati takomillashtirilgan (“O‘zkimyosanoat” AJning 2025-yil 10-dekabrda 10-1258-son ma’lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida xodimlarni boshqarish samaradorligi xalqaro va milliy standartlarga muvofiqlashtirilib, vakansiyalarni to‘ldirish tezligi (VVT) 23,9 kungacha qisqartirilgan, jalb qilinganlik darajasi (JQD) 63,3ga yetkazilgan hamda sodiqlik darajasi xalqaro me‘yorlarga yaqinlashtirilgan;

korporativ madaniyatni transformatsiya qilish doirasida “Industrial Culture 4.0” konsepsiyasiga asoslangan boshqaruv tizimining ilg‘or tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi OKR, gibril ish tizimi hamda markazdagi inson paradigmasi taklifi orqali asoslangan (“O‘zkimyosanoat” AJning 2025-yil 10-dekabrda 10-1258-son ma’lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy qilinishi natijasida boshqaruv funksiyalarini raqamlashtirish, adaptiv korporativ madaniyatni rivojlantirish, OKR tizimi, gibril ish modeli va e-NPS kabi zamonaviy boshqaruv vositalarini kompleks integratsiyalash orqali barqarorlik va innovatsion o‘rishni ta’minlovchi ilmiy asoslangan yondashuv sifatida shakllantirilgan;

qadriyatlar ta’sirida qulay mehnat sharoitlari (+12,189 ball) va sodiqlik (+13,461 ball) darajalarining ustuvor dinamikasiga tayangan holda, korporativ muhit barqarorligining 2030 yilgacha bo‘lgan ehtimoliy rivojlanish trayektoriyalarini aks ettiruvchi prognoz ishlab chiqildi (“O‘zkimyosanoat” AJning 2025-yil 10-dekabrda 10-1258-son ma’lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida tashkilotlarda xodimlar almashinuvi darajasining

pasayishi, boshqaruv jarayonlarida barqarorlikning kuchayishi hamda uzoq muddatli strategik samaradorlik va raqobatbardoshlikning oshishi ta'minlanadi.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 6 ta, shu jumladan, 3 ta respublika va 3 ta xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalarda ma'ruza shaklida bayon etilgan va muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya ishi bo'yicha jami 12 ta ilmiy ish, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiyasi komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan mahalliy ilmiy nashrlarda 4 ta, nufuzli xorijiy jurnallarda 2 ta, mahalliy va xorijiy konferensiyalarda 6 ta ilmiy maqola nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, to'qqizta paragraf, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 139 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI


Dissertatsiyaning **kirish** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan; tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan; respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan; tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon qilingan; olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan; tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, nashr qilingan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Aksiyadorlik jamiyatlari boshqaruv tizimida korporativ madaniyatning ilmiy-nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida globallashuv sharoitida “korporativ madaniyat” tushunchasining mazmun-mohiyati, o'ziga xos jihatlari, uni aksiyadorlik jamiyatlarida shakllantirish zarurligi, aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ madaniyatni rivojlantirishning maqsadi, vazifalari va tamoyillari, xorijiy olimlarning aksiyadorlik jamiyatlarining iqtisodiy samaradorligiga korporativ madaniyatning ta'sirini o'rganish bo'yicha qarashlari tadqiq etilgan.

“Korporativ madaniyat” tushunchasi tashkilot ichidagi umumiy qadriyatlar, e'tiqodlar, normalar va raftorlar majmuini ifoda etadi. Bu madaniyat tashkilotning ichki muhitini belgilaydi, xodimlar faoliyati va motivatsiyasiga ta'sir qiladi hamda uzoq muddatli strategik ustunlik manbayi sifatida xizmat qilishi mumkin. Turli nazariy yondashuvlar va tadqiqotlar korporativ madaniyatni tashkilotning “noyob DNK”si sifatida baholaydi.

O'zbekistonlik tadqiqotchilar ham korporativ madaniyatga o'z ta'riflarini berishgan. Masalan, N.Akramova korporativ madaniyatni tashkilot doirasida ishlab chiqilgan va xodimlar tomonidan qabul qilingan umumiy qadriyatlar, me'yorlar va raftor qoidalarining tizimi sifatida ta'riflaydi. Aksiyadorlik jamiyatlari tuzilmalarida korporativ subyektlarning o'zaro manfaatli munosabatlarini ta'minlashning adolatli tamoyillarini ta'minlash faqat iqtisodiy manfaatlar doirasida hisobga olinishi mumkin emas. Shunga ko'ra, aksiyadorlik jamiyatlarida boshqaruvning yuqori samaradorligiga erishishda korporativ madaniyat, korporativ xulq-atvor kodeksi,

inson kapitalini rivojlantirish strategiyalari va korporativ ijtimoiy javobgarlik muhim rol o'ynaydi.



1-rasm. Korporativ madaniyatning aksiyadorlik korxonalari boshqaruv tizimiga ta'siri⁴

Rasmdan ko'rish mumkinki, kuchli korporativ madaniyat aksiyadorlik jamiyatlari boshqaruv tizimida korporativ boshqaruv tamoyillarini yanada mustahkamlash orqali samarali boshqaruv tizimiga erishishga yo'l ochib beradi. Korporativ boshqaruvning asosiy tamoyillari bo'lgan shaffoflik, hisobdorlik va javobgarlik aksiyadorlik korxonalari

⁴ Muallif tomonida tizimlashtirilgan.

boshqaruv tizimining asosi hisoblanadi hamda korporativ madaniyat kesimida integratsiyalash orqali biznesning manfaatdor tomonlari o'rtasida sog'lom muhitni shakllantirishga erishish mumkinligini ko'rsatadi.

Tashkilotlarning samarali ishlashi ko'plab omillarga bog'liq bo'lib, ularning o'zaro uyg'unligi muhim ahamiyat kasb etadi. McKinsey 7S modeli aynan shu uyg'unlikni baholash va takomillashtirish uchun ishlab chiqilgan model bo'lib, tashkilot ichidagi strukturaviy va insoniy omillarni o'z ichiga oladi hamda ularning korporativ madaniyat va boshqaruv tizimiga ta'sirini tushunishga yordam beradi.

“O'zkimyosanoat” aksiyadorlik jamiyati O'zbekiston Respublikasining kimyo sanoati korxonalarini birlashtirgan yirik korporativ tuzilma hisoblanadi. Uning asosiy vazifasi kimyo zavodlarining sanoat, innovatsiya va marketing dasturlarini ishlab chiqish hamda amalga oshirish orqali tarmoqning barqaror rivojlanishini ta'minlashdir.

BASF kimyo sanoatidagi eng innovatsion va yetakchi kompaniyalardan biri bo'lib, uning tarixi ilmiy kashfiyotlar, texnologik inqiloblar va global miqyosdagi kengayish bilan bog'liq. Bugungi kunda kompaniya barqaror rivojlanish va ekologik toza kimyo sanoatini rivojlantirishga e'tibor qaratmoqda.

1-jadval

McKinsey 7S modeli orqali “O'zkimyosanoat” AJ va “BASF Chemical company”ning solishtirma jadvali⁵

McKinsey 7S	“O'zkimyosanoat” AJ	BASF
Structure	Davlat kompaniyasi	Global xususiy kompaniya
Strategy	Ichki bozorga yo'naltirilgan	Innovatsiya va global yetakchilik
Systems	Byurokratik, ERP rivojlanmoqda	To'liq avtomatlashtirilgan
Shared Values	Milliy sanoatni qo'llab-quvvatlash	Innovatsiya va ekologiya
Style	Markazlashgan boshqaruv	Moslashuvchan rahbarlik
Staff	Asosan, O'zbekiston xodimlari	Global malakali mutaxassislar
Skills	Ishlab chiqarish tajribasi	Ilmiy-tadqiqot yetakchisi

1-jadvalga ko'ra, “O'zkimyosanoat” davlatning sanoat strategiyasiga moslashgan kompaniya ekanligi, “BASF Chemical company” esa global bozor uchun innovatsiyalar yaratishi ko'zga tashlanadi. “O'zkimyosanoat” hali transformatsiya bosqichida, BASF esa jahon kimyo sanoatining yetakchisidir.

Dissertatsiyaning **“Zamonaviy sharoitlarda korporativ madaniyat amaliyotining hozirgi holati tahlili”** deb nomlangan ikkinchi bobida korporativ madaniyatni aksiyadorlik jamiyatlari samaradorligini oshirishga ta'siri va aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ madaniyatning rivojlanish holati tahlil qilingan, shuningdek, aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ madaniyat samaradorligi bahosining boshqa determinantlar bilan aloqasi ekonometrik tahlillar orqali aniqlangan.

Tadqiqotlar natijasida aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ madaniyatning rivojlanish darajasini kompleks baholash maqsadida LSI, CCI, CVA va TII indikatorlari asosida 0–5 oraliqdagi Integral Corporate Culture Index (ICMI) ishlab chiqildi hamda uning asosida korporativ madaniyat holatini to'rt toifaga ajratish metodikasi taklif etildi.

⁵ Muallif tomonida tizimlashtirilgan.

Integral Corporate Culture Index (ICMI) formulasi – aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ madaniyat rivojlanish darajasini baholash uchun quyidagi integral ko‘rsatkich taklif etiladi:

$$ICMI = w_1 \cdot LSI + w_2 \cdot CCI + w_3 \cdot CVA + w_4 \cdot TII$$

Unga ko‘ra, **LSI** (Leadership & Social Influence Index) – yetakchilik, jamoaviy birdamlik va ijtimoiy mas‘uliyatni o‘lchaydi, inson kapitalini yetakchilik va jamoaviylik orqali rivojlantirish konsepsiyasiga asoslanadi, transformatsion va human-centred leadership nazariyalariga tayanadi. **CCI** (Corporate Cohesion Index) – korporativ qadriyatlar, jamoa sodiqligi va ijtimoiy muhitni baholaydi, xulq-atvor iqtisodiyoti tamoyillariga asoslanib, norasmiy mehnat munosabatlarini aks ettiradi. **CVA** (Corporate Values Alignment) – shaxsiy va korporativ qadriyatlar uyg‘unligini aniqlaydi va Human-Centred Management paradigmasining asosiy ko‘rsatkichidir. **TII** (Technological & Innovation Index) – raqamli madaniyat, innovatsion fikrlash va hybrid ish modelini qamrab oladi hamda OKR tizimlari orqali samaradorlikni oshirish bo‘yicha ilmiy natijalarga tayanib, texnologik moslashuvchanlik va o‘zgarishlarga ochiqlikni baholaydi.

W₁, W₂, W₃, W₄ – vazn koeffitsiyentlari.

2-jadval

ICMI natijalarini talqin qilish shkalasi

ICMI qiymati	Korporativ madaniyat holati
0,0 – 2,0	Past rivojlangan
2,1 – 3,0	O‘rta darajada
3,1 – 4,0	Yetarli rivojlangan
4,1 – 5,0	Yuqori rivojlangan

ICMI qiymat natijalari korxonadagi mavjud holatga ko‘ra baholanadi. Bu aksiyadorlik jamiyatlari uchun korxonaning korporativ madaniyatini to‘g‘ri baholash va muammolarni to‘g‘ri aniqlab, izchil bartaraf etishga yordam beradi.

3-jadval

“O‘zkimyosanoat” aksiyadorlik jamiyatida korporativ madaniyatning integral bahosi (ICMI)

№	Indikatorlar	Baholash oralig‘i (0–5)	Vazn (w)	Vaznli qiymat
1	LSI	3,8	0,30	1,14
2	CCI	3,5	0,25	0,88
3	CVA	3,6	0,25	0,90
4	TII	3,2	0,20	0,64
	Integral ko‘rsatkich (ICMI)		1,00	3,56

$$ICMI = (3,8 \times 0,30) + (3,5 \times 0,25) + (3,6 \times 0,25) + (3,2 \times 0,20) = 3,56.$$

Hisob-kitoblarga ko‘ra, aksiyadorlik jamiyatida korporativ madaniyatning integral indeksi 3,56 ni tashkil etdi. Mazkur ko‘rsatkich ICMI shkalasiga muvofiq, “yetarli rivojlangan” darajaga to‘g‘ri keladi.

Muallif “O‘zkimyosanoat” AJda o‘tkazilgan n=132 so‘rovnoma natijalariga ko‘ra, korporativ madaniyat bahosi bog‘liq o‘zgaruvchi va mustaqil o‘zgaruvchilar to‘plami, jumladan, demografik, ish joyi va tashkiliy omillar o‘rtasidagi munosabatni o‘rganish uchun miqdoriy yondashuvdan foydalangan.

Ikkinchi darajali OLS model natijalari⁶

Korporativ_madaniyat bahosi	Coef.	St.Err.	t- value	p- value	[95% Conf	Interval]	Sig
Yosh	-.15	.31	-0.48	.63	-.764	.465	
Jins	1.748	3.189	0.55	.585	-4.58	8.075	
Tajriba	-.379	.381	-1.00	.322	-1.134	.376	
Oylik	-.346	.443	-0.78	.436	-1.225	.533	
Ma’lumot	7.784	3.628	2.15	.034	.585	14.982	**
Tartibga amal qilish	6.881	2.125	3.24	.002	2.666	11.097	***
Korporativ madaniyatsiz-lik	0	.	.	.	.	.	
Bepisandlik	-2.973	3.619	-0.82	.413	-10.154	4.207	
Kamsitish	-6.377	6.165	-1.03	.303	-18.609	5.855	
Kibr	.903	3.888	0.23	.817	-6.811	8.618	
Riyo	-4.304	8.49	-0.51	.613	-21.149	12.54	
Maqsad xabardorligi	0	.	.	.	.	.	
past	-4.431	4.71	-0.94	.349	-13.777	4.914	
yuqori	2.44	3.525	0.69	.49	-4.553	9.433	
Samaradorlikka to’sqinlik	0	.	.	.	.	.	
Sog’liq	-16.368	6.746	-2.43	.017	-29.752	-2.985	**
Texnologik talant	.534	4.791	0.11	.912	-8.972	10.04	
Til bilish	-2.128	4.72	-0.45	.653	-11.492	7.236	
boshqa	-7.56	3.648	-2.07	.041	-14.798	-.322	**
Hissa qadrlanishi	0	.	.	.	.	.	
Oylik ustama	9.552	4.375	2.18	.031	.872	18.232	**
Sayohatlar	-7.19	6.639	-1.08	.281	-20.362	5.982	
Tashakkurnoma	2.644	6.049	0.44	.663	-9.358	14.646	
Korxona qadriyati	0	.	.	.	.	.	
Qulay mehnat sharoiti	12.189	3.48	3.50	.001	5.284	19.094	***
Sharaf	-4.9	8.381	-0.58	.56	-21.528	11.728	
Sodiqlik	13.461	4.049	3.32	.001	5.428	21.494	***
Tanish-bilish	.676	7.318	0.09	.927	-13.842	15.194	
Ishdan ketish niyati	0	.	.	.	.	.	
Ish haqi pastligi	-10.829	6.212	-1.74	.084	-23.152	1.495	*
Ish rejimi	1.484	5.909	0.25	.802	-10.24	13.208	
Korrupsiya	-6.167	6.944	-0.89	.377	-19.945	7.61	
Noqulay ish sharoiti	-5.755	7.627	-0.75	.452	-20.887	9.378	
Qadrsiz mehnat	-1.206	6.252	-0.19	.847	-13.608	11.197	
KM rivoji kutilma	0	.	.	.	.	.	
Shaxsiy ishonch	8.116	4.582	1.77	.08	-.974	17.207	*
Ustoz-shogird	-4.582	4.469	-1.03	.308	-13.449	4.285	
Xushchaqchaq jamoa	7.724	3.761	2.05	.043	.262	15.185	**
Constant	11.77	25.455	0.46	.645	-38.731	62.271	
Mean dependent var		75.894	SD dependent var		18.283		
R-squared		0.524	Number of obs		132		
F-test		3.554	Prob > F		0.000		
Akaike crit. (AIC)		1106.729	Bayesian crit. (BIC)		1198.979		
*** $p<.01$, ** $p<.05$, * $p<.1$							

⁶ Ekonometrik tahlillar natijasida olingan muallif ishlanmasi

So'rovnoma yoshi, jinsi, ma'lumoti, oylik daromadi, yetakchilik reytinglari, qoidalarga rioya etish darajasi, xodimlarning mehnatga jalb etilishi va ish joyidagi sharoitlar kabi ko'rsatkichlarni qamrab olgan. Ma'lumotlar Likert shkalasi asosidagi savollar va toifali o'zgaruvchilar orqali to'plangan bo'lib, bu korporativ madaniyat reytinglariga ta'sir qiluvchi omillarning keng doirasini tahlil qilish imkonini beradi. To'plangan ma'lumotlar Stata dasturidan foydalangan holda, tavsifiy va inferensial statistik tahlil uchun qayta ishlandi.

Mazkur topilmalar korporativ madaniyatni oshirish uchun qo'llab-quvvatlovchi ish muhiti yaratish va sodiqlikni rivojlantirishning muhim rolini ta'kidlaydi.

Regressiya natijalari asosida quyidagi ekonometrik tenglama ishlab chiqildi:

$$KM_bahosi = 11.77 + 7.784 \cdot Ma'lumoti + 6.881 \cdot Tartibga_amali - 16.368 \cdot Samaradorlikka_to'sqinlik_{Sog'lig'i} - 7.56 \cdot Samaradorlikka_to'sqinlik_{Boshqasi} + 9.552 \cdot Hissa_qadrlanishi_{Oylik_ustamasi} + 12.189 \cdot Korxona_qadriyati_{Qulay_mehnat_sharoiti} + 13.461 \cdot Korxona_qadriyati_{Sodiqligi} - 10.829 \cdot Ishdan_ketish_niyati_{ish_haqi_pastligi} + 8.116 \cdot KM_rivoji_kutilma_{Shaxsiy_ishonchi} + 7.724 \cdot KM_rivoji_kutilma_{Xushchaqchaq_jamoasi} + \epsilon_i$$

Bu yerda:

$\beta_0 = 11.77$ – ozod had (Intercept (constant)), ya'ni boshqa barcha omillar nol bo'lganda, korporativ madaniyat bahosining boshlang'ich qiymati;

har bir o'zgaruvchi koeffitsiyenti (β) uning korporativ madaniyat bahosiga ta'sir miqdorini anglatadi;


ϵ – jami regressiyadan qoldiq (error term), ya'ni model tomonidan tushuntirilmagan boshqa omillar.

Tenglama natijasiga ko'ra, ma'lumot, tartibga amal qilish, oylik ustama, qulay mehnat sharoitlari va sodiqlik o'zgaruvchilari ijobiy ta'sir ko'rsatadi, ammo sog'liq va boshqa muammolar salbiy ta'sir qilishi mumkin.

Shuningdek, do'stona jamoaviy muhit uchun o'zgaruvchining muhim va ijobiy koeffitsiyenti 7,724 ($p=0,043$) mavjud. Bu shuni ko'rsatadiki, barkamol va qo'llab-quvvatlovchi jamoa dinamikasi xodimlarning korporativ madaniyatni idrok etishini sezilarli darajada oshiradi. Shu jihatlarni hisobga olgan holda, ish bilan ta'minlovchilar jamoaviy faoliyatga ko'proq ahamiyat berishlari va korporativ reytinglarni yanada takomillashtirish uchun ijobiy ish muhiti madaniyatini yaratishlari zarur. Ishonch koeffitsiyenti 8,116 ga teng bo'lib, garchi u juda muhim ($p = 0,08$) bo'lsa-da, bu ijobiy munosabat mavjudligini ko'rsatadi. Ushbu natija shuni ko'rsatadiki, xodimlar o'rtasida ishonchni mustahkamlash ularning korporativ madaniyat haqidagi idrokini oshirishi mumkin. Ish beruvchilar xodimlarning qoniqishini oshirish uchun tashkilot ichida shaffoflik va ishonchni ta'minlashga e'tibor qaratishlari lozim.

Ba'zi o'zgaruvchilar korporativ madaniyat reytinglariga salbiy ta'sir qiladi. Masalan, past ish haqi – 10,829 manfiy koeffitsiyentga ega, bu 10 % darajasida statistik ahamiyatga ega ($p=0,084$). Bu shuni ko'rsatadiki, kompensatsiyaning yetarli emasligi xodimlarning korporativ madaniyatni idrok etishini kamaytirishi mumkin. Xuddi shunday, noqulay ish sharoitlari (koeffitsiyent = -5,755, $p = 0,452$) kabi muammolar ham reytinglarga salbiy ta'sir qiladi, ammo ta'sir statistik ahamiyatga ega emas.

“O‘zkiyosanoat” AJ boshqaruv apparatida xodimlar qo‘nimsizligiga (2-rasm) aynan qanday omillar sabab bo‘lishi bo‘yicha so‘rovnoma o‘tkazilgan. Jami 110 nafar respondent ishtirok etgan bu so‘rovnomada asosiy omil ish haqining pastligi (42), ish rejimi (28), mehnatning qadrlanmasligi (21) bo‘lgan. Undan keyingi o‘rinlarda esa ichki muhit o‘zgarishi (12), noqulay ish sharoiti (3) va korrupsiya (4) kabi omillar ko‘rsatib o‘tilgan.



2-rasm. “O‘zkiyosanoat” AJ korxonasi xodimlarining qo‘nimsizlik sabablari (n=110 so‘rovnomasi asosida)⁷

Shu sababli ish samaradorligini oshirish, xodimlarning tashkilotga daxldorlik hissi va sodiqlik darajasini yanada kuchaytirish uchun yuqorida keltirilgan hamda respondentlar tomonidan qoniqish ko‘rsatkichi past bo‘lgan omillarni bartaraf etish choralari ko‘rish maqsadga muvofiq⁸.

O‘zbekistonda “O‘zkiyosanoat” AJning 5 yillik faoliyati bo‘yicha kadrlar qo‘nimsizligi tahlil qilindi. Bunda “O‘zkiyosanoat” AJ ijro apparatida faoliyat yurituvchi xodimlar statistikasi asos qilib olindi.

5-jadval

“O‘zkiyosanoat” AJda 2020–2024-yillarda kadrlar qo‘nimsizligi ko‘rsatkichi o‘zgarish dinamikasi⁹

Yillar	Xodimlarning umumiy soni	Ishdan bo‘shaganlar soni	Kadrlar qo‘nimsizligi ko‘rsatkichi, %
2020	108	31	28,7
2021	106	21	19,8
2022	117	21	17,9
2023	141	21	14,9
2024	155	22	14,1

⁷ So‘rovnoma asosida muallif chizmasi

⁸ Usmonov Adxamjon A‘zamjonovich. Tashkilotda xodimlarni boshqarishning tashkiliy-motivatsion mexanizmlarini takomillashtirish yo‘llari (O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi misolida).

⁹ Korxona ma‘lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari

Olingan tahliliy ma'lumotlar asosida (5-jadval) kadrlar qo'nimsizligini aniqlash bo'yicha mavjud quyidagi formuladan foydalanildi:

$$\text{Kadrlar qo'nimsizligi} = \left(\frac{\text{ishdan bo'sha(til)gan soni}}{\text{o'rtacha xodimlar soni}} \right) \times 100\%$$

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, korxonada yildan yilga qo'nimsizlikning pasayish tendensiyasi kuzatilgan. Ya'ni 5 yil oldin 28,7 % bo'lgan ko'rsatkich 2024-yilga kelib 14 %ga kamaygan. Ushbu ijobiy o'zgarishni korxonada shakllangan mavjud qadriyatlar, mehnat sharoitlarining yaxshilanishi va boshqaruv tizimiga korporativ madaniyat elementlarining izchil integratsiya qilinishi bilan izohlash mumkin.

Xodimlar sadoqat ko'rsatkichi (eNPS)ning korporativ madaniyatga ta'siri. Tadqiqotchi tomonidan ishlab chiqilgan so'rovnoma asosida 2025-yilning dekabr-yanvar oyida "O'zkimyosanoat" AJ ijro apparati 110 nafar xodimining javoblariga asosan, xodimlarning sodiqlik indeksini o'lchash mumkin. So'rovnoma asosida olingan natijalarni quyidagicha aniqlaymiz:

$$\text{eNPS} = \left(\frac{PS - TS}{URS} \right) \times 100\%$$

Bunda:

xodimlarning sodiqlik ko'rsatkichi (%);

promouterlar soni;

tanqidchilar soni;

URS – umumiy respondentlar soni.

Yuqoridagi formula asosida o'tkazilgan so'rovnoma natijalaridan kelib chiqib, korxona xodimlarining ishga sodiqlik darajasi quyidagicha hisoblanadi:

PS= 56 nafar;

TS = 42 nafar.

$$\text{eNPS} = \left(\frac{56 - 42}{110} \right) \times 100\% = 12,72\%$$

eNPS= +12,72%

Olingan qiymatga ko'ra, "O'zkimyosanoat" AJ xodimlarining sodiqlik ko'rsatkichi +12,72 %. Indeksning nazariy qiymati – 100 dan +100 gacha oraliqni tashkil etadi. Lekin jahon amaliyotida xodimlarning ishga sodiqlik ko'rsatkichi 0 dan past yoki 0 dan +10 foizgacha bo'lsa, tashkilotning barqaror rivojlanish ehtimoli yuqori emasligini ko'rsatadi. Demak, korxonada xodimlarning sodiqlik ko'rsatkichi 12,72 % foizni tashkil qilib, ushbu miqdor minimal qiymat (+10 %gacha)dan 2,72 foiz yuqori ekanligini ko'rsatmoqda. Bu esa korxonada malakali kadrlarning ishdan ketish xavfi past darajada ekanligi, ishdan qoniqish va ishga nisbatan daxldorlik hissi ham sezilarli darajada mavjudligini ko'rsatmoqda.

Vakansiyalarni to'ldirish tezligining korporativ madaniyatga ta'siri. Vakansiyalarni to'ldirish tezligi korporativ madaniyatning barqarorligi va rivojlanishiga bevosita ta'sir qiladi. Nomzodlar tez va to'g'ri tanlansa, jamoa barqaror bo'ladi, motivatsiya va ish unumdorligi ortadi. Aksincha, bu jarayon uzoq davom etsa yoki noto'g'ri nomzodlar jalb qilinsa, kompaniyaning ichki muhiti

buzilishi, xodimlarning noroziligi oshishi va ish beruvchi sifatida kompaniyaning obro'siga putur yetishi mumkin. Zamonaviy korxonalarda vakansiyalarni to'ldirishga katta e'tibor qaratiladi. Vakansiyalarni to'ldirish tezligini amaliyotda quyidagicha hisoblash mumkin:

$$VTT = \frac{UVYV}{UYVS} \quad (4)$$

Bunda:

VTT – o'rtacha vakansiyalarni to'ldirish tezligi;

UVYoV – umumiy vakansiyalarning yopilgan vaqti;

UYoVS – umumiy yopilgan vakansiyalar soni.

“O'zkimyosanoat” AJdan olingan ma'lumotlarga ko'ra, 2023-yilning mart oyi boshida 21 ta vakant lavozim mavjud bo'lganligi aniqlangan. Oy oxiridagi tahlil natijasida esa har bir vakant lavozimni to'ldirishga ketgan kunlar yig'indisi 504 kunni tashkil etgani ma'lum bo'lgan. Demak, o'rtacha umumiy vakansiyalar uchun ketgan kunni hisoblashda quyidagi amalni bajaramiz:

$$VTT = \frac{504}{21} = 24$$

Olingan ma'lumotga ko'ra, o'rtacha vakant lavozimlarni to'ldirish 24 kunni tashkil etadi. Xalqaro inson resurslarini boshqarish professional jamiyati – SHRM ma'lumotlariga ko'ra, o'rtacha vakant lavozimlarni to'ldirish 26 kunni tashkil etadi. Bu korxonada mavjud vakansiyalarni jahon standarti bo'yicha to'ldirish tezligidan kamroq ekanligini ko'rsatmoqda.

Xodimlarning korxona missiya va vazifalariga jalb qilinganlik darajasini aniqlash. Bunda muallif n=110 so'rovnomasidan foydalanildi. Unga ko'ra, jami 110 nafar korxona xodimi o'rtasida so'rovnoma o'tkazilib, ular orqali xodimlarning ishga jalb qilinganlik darajasi o'rganildi. Xodimlarning ish faoliyatiga jalb qilinganlik darajasi quyidagi formula asosida hisoblandi:

$$IQD = \frac{IJB}{BSS} \times 100\%$$

Bu yerda:

IQD – xodimlarning ish faoliyatiga jalb qilinganlik darajasi;

IJB – ijobiy javob berganlar soni;

BSS – barcha savollar soni.

Demak, mavjud ma'lumotlar asosida xodimlarning ishga jalb qilinganlik darajasi aniqlangan:

$$IQD = \frac{73}{110} \times 100\% = 66.3\%$$

Demak, “O'zkimyosanoat” AJ xodimlarining ish faoliyatiga jalb qilinganlik darajasi 66,3 foizni tashkil etadi. Jahon standarti bo'yicha xodimlarning ish faoliyatiga jalb qilinish darajasi 50 foizdan yuqori bo'lsa, uni qoniqarli deb baholash mumkin. Agar ko'rsatkich 70 foizdan oshsa, bu yuqori darajadagi jalb qilinish sifatida e'tirof etiladi. Gallup olimlari korxonalarda xodimlarning jalb qilinish oqibatida samaradorlikning pasayishi natijasida yiliga taxminan 7 trillion AQSH dollari yo'qotilishini aniqlashgan. Bu shuni anglatadiki, aksariyat xodimlar korxona

missiya va vazifalariga to‘laonli birikmagan, korxonada ishlash va korxona uchun foyda keltirish farqlarini to‘laonli anglamagan. Garchi bu xodimlar tashkilotga (ish haqi evaziga) vaqt ajratsa ham, ular qo‘llaridan kelgancha harakat qilishi yoki eng yaxshi g‘oyalarini baham ko‘rishlari uchun rag‘batlantirilmaydi¹⁰.

